O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Tasdiqlayman”
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
M.E.Po‘latov
2024 yil “29” 08

Ro‘yxatga olindi: 61010100
2024 yil “29” 08

# AKADEMIK KO‘NIKMALAR VA KASBIY KOMPETENTLIK

## O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohalari:** | 1000 000 – Xizmarlar |
| **Ta’lim sohalari:** | 1010000 – Xizmat ko‘rsatish sohasi |
| **Ta’lim yo‘nalishlari:** | 61010100 –Turizm va mehmondo‘stlik |

Samarqand-2024

| Fan/modul kodi | | O‘quv yili | Semestr | Kreditlar |
|---|---|---|---|---|
| AKKK1104 | | 2024-2025 | 2 | 4 |
| **Fan/modul turi** | | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Majburiy | | O‘zbek/rus | | 4 |
| 1 | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik | 48 | 72 | 120 |

**2** **I. Fanning mazmuni**

Ushbu fan oliy ta’lim tizimiga birinchi qadam tashlagan talabaga oliy ta’lim tizimida tahsil olish, kredit-modul tizimi bo‘yicha o‘quv jarayonlarini tashkil etish, ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish, ta’lim yo‘nalishining xususiyatlari, 61010100 - Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari bo‘yicha mutaxassislarning bilimi, malakasi va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar, turizm va mehmondo‘stlik kasbiy kompetentlik talablari va kompetentlik turlari, shuningdek, sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, mavzu tanlash, sohadagi muammolar bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borish jarayonlarini o‘rgatadi.

Fanning vazifasi – talabalarda oliy ta’lim tizimida tahsil olishning o‘ziga xos jihatlarini, kredit-modul tizimi bo‘yicha o‘quv jarayonlarini tashkil etish, akademik mobillikni amalga oshirish, GPA yig‘ish, o‘z sohasi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan kompetensiyalarni o‘rgatishdan iborat.

**3** **II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. “Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi. Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonlarni tashkil etilishi. Ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etilishi. O‘quv jarayonini kredit-modul tizimi bo‘yicha tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. Akademik mobillik, mobillik dasturi, kredit to‘plash, kreditni ko‘chirish, ta’lim dasturi, ta’lim dasturi katalogi, talabaning shaxsiy ta’lim traektoriyasi, transkript.

**2-mavzu. Turizm va mehmondo‘stlik mutaxassis kadrlariga qo‘yiladigan talablar va uning huquqiy-me’yoriy hamda o‘quv-metodik hujjatlarda aks etishi**

Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni Davlat ta’lim standartlarida aks etishi. 61010100 - Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishlarining malaka talablari va o‘quv rejalari. Fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlari va fan sillabuslarini ishlab chiqish tartibi. Turizm va mehmondo’stlik ta’lim



9. https://www.natlib.uz (Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi)

10. https://www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

11. https://www.oak.uz (O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi)

12. https://www.scopus.com (Litsenziyalangan adabiyotlar bazasi)

13. https://www.sciencedirect.com (Litsenziyalangan adabiyot platformasi)

**8** Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O‘quv uslubiy kengashining 2024-yil 29.08 dagi 1 -sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-15-11)

**9** **Fan/modul uchun ma’sullar:**

**Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich** – SamISI, “Marketing” kafedrasi mudiri, dotsent. PhD.

**Maxmudova Aziza Pirmamatovna** – SamISI, “Turizm” kafedrasi dotsenti, PhD.

**10** **Taqrizchilar:**

**Tuxliyev I.S.** – SamISI, “Turizm” kafedrasi professori, i.f.d.

**Pardayev Sh.X.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi dotsenti v.b., PhD.

| | |
|---|---|
| | Ilmiy tadqiqot munosabatlarini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotning mohiyati va ularning turlari, tadqiqot va akademik rivojlanish ko`nikmalarini amaliyotda qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 5 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**<br>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>• esse, tezis va maqolalar yozish;<br>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;<br>• jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;<br>• muhokamalarda ishtirok etish;<br>• kichik guruhlarda ishlash;<br>• loyiha ishi bajarish;<br>• mustaqil ishlarni bajarish;<br>• taqdimot tayyorlash;<br>• turli darajadagi testlarni yechish;<br>• so'rov o'tkazish;<br>• muammoni hal qilish. |
| 6 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni tula uzlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, urganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat buyicha yozma ishni topshirish. |
| 7 | **VIII. Adabiyotlar ro'yxati**<br>1.Alemasov V., Mamadaliyev Sh.O. Ilmiy tadqiqot: metodologiya, metodika, ijodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 102 b.<br>2.N.A.Shermuhamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik-2. – Toshkent.: "Innovotsiya-Ziyo", 2020. - 454 b.<br>3.N.A.Shermuhamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. – T.: "Fan va texnologgiya", 2014. - 512 bet.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni<br>5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori<br>6. Сафиназаров, И. (2019). I.S Илмий тадқиқот методологияси. Архив научных исследований, 1(1). извлечено от https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/349<br>8. А.Нурмонов. Илмий гадкиқот методологияси ва методлари. Илмий хабарнома, АДУ, №1 2010 йил.<br>**Internet-saytlar** |



| | |
|---|---|
| | yo'nalishlarining kasbiy faoliyatlarining tavsifi, kasbiy faoliyatining sohalari, kasbiy faoliyatlariningob'yektlari, kasbiy faoliyatlarining turlari, kasbiy vazifalari. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.<br>**3-mavzu. O'quv jarayonida ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'limni tashkil etilishi**<br>Fanlar bo'yicha o'quv dasturlar va fan sillabuslarini ishlab chiqish tartibi. Ma'ruza mashg'ulotlarining funksiyalari va turlari. Ma'ruza mashg'ulotlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Ma'ruza mashg'ulotlar va ularda talabalarning asosiy vazifalari. Talabalar mustaqil ishining maqsad va vazifalari. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil shakllari.<br>**4-mavzu. Kasbiy kompetentlik tushunchasi**<br>"Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik sifatlari. Ijtimoiy kompetentlik. Maxsus kompetentlik. Psixologik kompetentlik. Metodik kompetentlik. Informasion kompetentlik. Kreativ kompetentlik. Innovasion kompetentlik. Marketing va logistika mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalari va ularga qo'yiladigan talablar.<br>**5-mavzu. Kasbiy kompetensiyalarni shakllanishida malakaviy amaliyotlarning o'rni**<br>Bakalavriat ta'lim yonalishlarining malakaviy amaliyotlarini tashkil etilishi. Malakaviy amaliyotining maqsad va vazifalai. Malakaviy amaliyotning mazmuni. Malakaviy amaliyotning reja-jadvali. Malakaviy amaliyotini baholash mezoni. Malakaviy amaliyoti hisobotiga qo'yiladigan talablar.<br>**6-mavzu. Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash va uning dolzarbligini asoslash**<br>Mavzu (muammo)ning ishlanganlik (o'rganilganlik) darajasini aniqlash. Tadqiqotning konsepsiyasi, maqsadi va vazifalarini shakllantirish. Ilmiy tadqiqotning ob'ekti va predmetini belgilash.<br>**7-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlari va ularning xususiyatlari**<br>Analiz va sintez. Kompleks yondashuv va tizimli-funksional yondashuv. Retrospektiv yondashish va qiyosiy taxlil. Empirik va dala materiallarini shakllantirish. So'rovnomalar o'tkazish usuli. Kuzatish va eksperiment. Kontent-analiz va statistik ma'lumotlardan foydalanish. Intervyu va ekspress-intervyu. Ilmiy tadqiqotda sotsiometriya metodidan foydalanish<br>**8-mavzu: Mutaxassislik fanlarni o'qitish jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlari**<br>Ilmiy tadqiqot ishlari turlari. Ilmiy tugarak va uni tashkil etish tartibi. Ilmiy tugarakka a'zo bo'lish va qatnashish tartibi. Ilmiy tugarakning maqsadi va vazifalari. Kurs ishlari va ularni yozish tartibi.<br>**9-mavzu. Ilmiy tadqiqot va akademik rivojlantirish yo'nalishi va ilmiy muammoni tanlash** |

Ilmiy tadqiqot yo‘nalishini tanlash usullari va maqsadlari. Ilmiy muammo, uni tanlash va shakllantirish. Ilmiy muammolarni ishlab chiqish va hal qilish. Ilmiy muammolarning tasnifi.

**10-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va texnikasi**

Tadqiqot metodologiyasining mohiyati, tadqiqot tamoyillari. Gipoteza va tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish. Protsessual va uslubiy tadqiqot sxemalari. Tadqiqotda bilishning ilmiy usullari.

**11-mavzu. Tadqiqot va akademik ko‘nikma jarayonini tashkil etish**

Tadqiqotni loyihalash bosqichi. Ilmiy tadqiqotning texnologik bosqichi. Ilmiy tadqiqotning reflektiv bosqichi

**12-mavzu. Ilmiy tadqiqot uchun axborot izlashning asosiy usullari**

Hujjatli axborot manbalari, ma’lumot-axborot faoliyatini tashkil etish. Kataloglar va kartotekalar bilan ishlash usullari. Hujjatli ma’lumot manbalarini qidiring. Manbalar bilan ishlash, o‘qish texnikasi, qayd qilish texnikasi, reja tuzish

## III. AMALIY MASHG‘ULOTLARLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

1. “Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Turizm va mehmondo’stlik mutaxassis kadrlariga qo‘yiladigan talablar va uning huquqiy-me’yoriy hamda o‘quv-metodik hujjatlarda aks etishi.
3. O‘quv jarayonida ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’limni tashkil etilishi.
4. Kasbiy kompetentlik tushunchasi.
5. Kasbiy kompetensiyalarni shakllanishida malakaviy amaliyotlarning o‘rni.
6. Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash va uning dolzarbligini asoslash.
7. Ilmiy tadqiqot metodlari va ularning xususiyatlari.
8. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlari.
9. Ilmiy tadqiqot va akademik rivojlantirish yo‘nalishi va ilmiy muammoni tanlash.
10. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va texnikasi.
11. Tadqiqot va akademik ko‘nikma jarayonini tashkil etish.
12. Ilmiy tadqiqot uchun axborot izlashning asosiy usullari.

Amaliy mashg‘ulot mavzulariga fanning sillabusini ishlab chiqishda qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi



lozim. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”.
2. 61010100 - Turizm va mehmondo’stlik yo‘nalishining malaka talablari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori.
5. Kasbiy kompetentlik va asosiy tarkibiy qismlari.
6. Ijtimoiy kompetentlik va mazmuni.
7. Maxsus kompetentlik va uning mazmuni.
8. Psixologik kompetentlik va uning mazmuni.
9. Metodik kompetentlik va uning mazmuni.
10. Informasion kompetentlik va uning mazmuni.
11. Kreativ kompetentlik va uning mazmuni.
12. Innovasion kompetentlik va uning mazmuni.
13. Turizm va mehmondo’stlik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalari va ularga qo‘yiladigan talablar.
14. Ilmiy tadqiqotda qo‘llaniladigan metodlar va ulardan foydalanish.
15. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlari.
16. Ilmiy tadqiqot yo‘nalishi va ilmiy muammoni tanlash.
17. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va texnikasi.
18. Ilmiy tadqiqot vositalari va usullari.
19. Tadqiqot jarayonini tashkil etish.
20. Tadqiqotni loyihalash bosqichlari.
21. Ilmiy tadqiqot uchun axborot izlashning asosiy usullari.
22. Tadqiqot natijalarini ro‘yxatga olish va nashr etish, ilmiy nashrlar turlari.

4

## V.Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalari)

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni Davlat ta’lim standartlarida aks etishi, turizm va mehmondo’stlik ta’lim yo‘nalishlarining kasbiy faoliyatlarining tavsifi, kasbiy faoliyatining sohalari, kasbiy faoliyatlarining ob’yektlari, kasbiy faoliyatlarining turlari, kasbiy vazifalari, kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***